

Jasur TEMIROV,

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: jasur.temirov@gmail.com

SamDCHTI, f.f.d. (DSc), professor, taqrizi asosida

САУНЕ АБДУЛЛОХ МУХАММАД ИБН ИСМОИЛ АЛЬ-БУХАРИ ДАГИ (BIR MUDDAT, QIYOMAT, O'LIM) SO'ZNING LAFZIY VA ISTILOHIY MA'NOLARI

Annotatsiya

Maqlola buyuk bobokalonimiz Imom al-Buxoriy o'zlarining Sahiyah al-Buxoriy asarlarida rivoyat qilgan hadislardagi (bir muddat, qiyomat, o'lim) so'zning lafziy va istilohiy hamda leksik – sematik xususiyatlari ilmiy jihatdan tekshirilgan. Ushbu so'zning hadislarda turli o'rinnlarda turli ma'no qatlamlarini ifodalab kelishi, o'zbek tili grammatik ko'rsatkichlari asosida qiyosiy tahlil qilingandagi leksik-sematik o'ziga xoslik va farqli jihatlari misollar asosida tadqiq etilgan. Hadislarni o'rganish chog'ida matnlardagi (bir muddat, qiyomat, o'lim) terminlarni tarjima qilish jarayonida metaforalarning ishlatalishi, tarjimon transliteratsiyasi, tarjimadagi ekvivalentlik va tarjimada uchraydigan boshqa masala va jarayonlar muhokama qilinib misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Mabniy, jar, majrur, nasb, jar, jazm, raf, zarf, lafz, roviy, badaviy, ka'ba, cho'ri, yo'qsil, metafora, ekvivalent, transliteratsiya.

ИСТОЛКОВАТЕЛЬНОЕ И ИСКОННОЕ ЗНАЧЕНИЯ СЛОВА (СРОК, СУДНЫЙ ДЕНЬ, СМЕРТЬ) В ХАДИСАХ, ПЕРЕДАННЫХ АБУ АБДАЛЛОЙ МУХАММАДОМ ИБН ИСМАИЛОМ АЛЬ-БУХАРИ

Аннотация

В статье научно исследованы исконное и истолковательное значения, а также лексико-семантические особенности слова (срок, Судный день, смерть) в хадисах, рассказанных нашим прадедом имамом аль-Бухари в их произведениях Сахих аль – Бухари. Лексико-семантические особенности и различия этого слова при сравнительном анализе, основанном на грамматических показателях узбекского языка, были исследованы на примерах. При изучении хадисов обсуждаются и освещаются на примерах использование метафор в процессе перевода терминов (срок, Судный день, смерть) в текстах, транслитерация переводчика, эквивалентность в переводе и другие вопросы и процессы, встречающиеся в переводе.

Ключевые слова: Мабни, джар, маджрур, насб, джар, джазм, раф, зарф, лафз, ровий, бадавий, Кааба, рабыня, юксил, метафора, эквивалент, транслитерация.

THE VERBAL AND TERMINAL MEANINGS OF THE WORD (FOR A WHILE, DOOMSDAY, DEATH) IN THE HADITHS NARRATED BY ABU ABDULLAH MUHAMMAD IBN ISMAIL AL-BUKHARI

Annotation

The article examines the scientific examination of the verbal and lexical and lexical-semantic features of the word (for a while, doomsday, death) in the hadiths narrated by our great grandfather Imam al-Bukhari in his Sahih al-Bukhari. The fact that this word expresses different layers of meaning in different places in the hadiths, the lexical-semitic specificity of the Uzbek language, which was comparatively analyzed on the basis of the grammatical indicators, and different specific examples were researched. During the study of hadiths, the creation of metaphors in the process of translation of the terms sa'a (for a while, doomsday, death) in the texts, translator transliteration, equivalence in translation and other issues and processes in translation are discussed and illuminated through examples.

Key words: Mabni, jar, majrur, nasb, jar, jazm, raf, adverb, lafz, narrator, desert, kaaba, servant, lack, metaphor, equivalent, transliteration.

Kirish. Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (milodiy to'qqizinchi) asrda hadisshunoslikda katta muvaffaqiyatlar qo'liga kiritilgan. Chunonchi, butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingen oltita ishonchli hadislari to'plamining الصحاح السنتة (as-sihoh as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar.

Yana shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olti muhaddislarning ko'peliligi Markaziy osiyolik bo'lib, ulardan biri va buyugi: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir (194/810 – 254/870) bundan tashqari; Imom Muslim ibn al-Hajjoj (206/819–261/874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termizi (209/824–279/892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (202/817–275/880), Imom Ahmad An-Nasoiy (215/830–303/915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja (209/824–273/886) kabi siymlardir. Shular ichidan "Hadis ilmida amir al-mo'miniyn" degan sharafli nomga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriy alohida e'tiborga molik buyuk allomadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u zot التأريخ الاصحاح الأدبي والمفرد "Al-jome' as-sahih", "Al-adab al-mufrad", "At-tarikh al-kabir", "Barr ul-volidayn" "بَنْ الْوَالِدِينْ" "الصَّفَرْ", "At-ta'rix as-sag'ir", "At-ta'rix al-avdot", "At-ta'rixal-kabir", va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Buyuk allomaning eng muhim asari, shubhasiz, "Al-jome' as-sahih" dir. Bu asar "Sahiyh al-Buxoriy" nomi bilan ham mashhur. Uning g'oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom al-Buxoriygacha o'tgan muhaddislar o'z to'plamalriga eshitgan barcha hadislарini tanlab o'tirmay qatorasiga kiritaverganlar. Imom al-Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarni tabaqalarga bo'lib, ularning ishonchilarini ajratib, alohida kitob holiga keltiradi.

Ushbu maqlola Imom al-Buxoriy rivoyat qilgan hadislardagi (vaqt, qiyomat, o'lim) so'zning leksik-semantik xususiyatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

ساعه so'zi "Sahiyh al-Buxoriy" da uch xil ma'noda kelgan. وقت - الوقت - الموت - المولى - o'lim ma'nolarini ifodalab kelgan.

عن أبي شریع قال: قال رسول الله ﷺ إن مكة حرمها الله و لم يحرمها الناس، فلا يحل لإمرئ يؤمن بالله و اليهود الآخر أن يستثنيك بها ذمة، و لا يغضض بها شجرة،

فإن أحد ترخص لقتال رسول الله ﷺ فيها، فهو له: إن الله قد أدن لرسوله و لم يأدن لكم، و إنما أدن لي فيها ساعه من نهار ثم عادت حرمتها اليوم كحرمتها بالامس، ولبنائه [4]. الشاهد الغائب.

Tadqiqot metodologiyasi. Abu Shurayh roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rosululloh sollallohu alyhi vasallam: "Makkani Alloh haram qilgandir, odamlar haram qilgani yo'q. Allohga va oxirat kuniga keltirgan kishiga unga qon to'kish

ham, daraxt kesish ham halol bo'lmash. Agar birortasi Rasululloh alayhi vasallamning unda jand qilganlari hujjat qilib, ruxsatga erishmoqchi bo'lsa, unga: "Alloh o'z Rosuliga izn bergan, sizlarga izn bergan emas" denglar. Alloh menga unda faqat bir kunda bir muddatgina izn bergan, xolos. So'ng bugun uning haramligi xuddi kechagi haramligiga qaytdi. Hozir bo'lganlar hozir bo'lganlar yetkazsin", dedilar[1].

Ibn Hajar Asqaloniyning "فتح الباري شرح صحيح البخاري" kitobida ushbu hadisga quyidagicha sharh keltiradilar:

قوله إنما أذن لي بفتح أوله و الفاعل الله و يروى بضممه على البناء للمفعول و قوله ساعة من نهار تقدم في العلم أن مقدارها ما بين طلوع الشمس و صلاة العصر.

Izoh: Ushbu hadisi sharifdagi lafzi kun otishi va asr namozi orasida bo'lgan deb sharhda keltiradilar. Ushbu hadisi sharif va unga berilgan sharhdan shuni anglashimiz mumkinki so'zi ma'lum bir vaqtini ifodalab kelgan. grammatik jihatdan esa so'zi طرف زمان payt holi bo'lib kelgan.

عَنْ أَبْنَىٰ عَمَرَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا: أَنَّ اللَّهِيَّ قَدَّمَ مَكَّةً، فَدَعَا عُثْمَانَ بْنَ طَلْحَةَ، فَتَخَلَّفَ النَّابَ، فَتَفَتَّحَ النَّابَ، فَدَخَلَ النَّابَ، فَتَفَتَّحَ النَّابَ، فَدَعَا عُثْمَانَ بْنَ رَبِيعَ، وَعُثْمَانَ بْنَ طَلْحَةَ، ثُمَّ أَغْلَقَ النَّابَ، فَلَبِثَ فِيهِ سَاعَةً، ثُمَّ خَرَجُوا. قَالَ أَبْنُ عَمْرٍ: فَيَدْرُثُ فَسَأْلُتُ لِلَّا لَا، فَقَالَ: صَلَّى فِيهِ، فَلَمْ يَقُلْ: فَنَهَبَ عَلَيَّ أَنْ أَسْأَلَهُ كُمْ صَلَّى [4:108]

Ibn Umar roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi:

"Nabiy sollallohu alayhi vasallam Makkaga kelib, Usmon ibn Talhani chaqirdilar. U eshikni (Ka'ba eshigini) ochdi. Nabiy sollallohu alayhi vasallam, Bilol, Usoma ibn Zayd va Usmon ibn Talha kirishdi. Keyin eshik yopildi. U yerda bir muddat turib, so'ng chiqishdi. Shoshilib Biloldan so'rigan edim, "U zot uning ichida namoz o'qidilar", dedi. "Qayerida?" dedim. "Ikki ustun orasida", dedi. Qancha o'qiganlarini so'rash yodimdan chiqibdi". [1:419]

Ushbu hadisi sharifda ham سَاعَةً so'zi bir muddat degan ma'noni ifodalab kelganini ko'rishimiz mumkin. Grammatik jihatdan esa سَاعَةً so'zining ma'no xususiyatlari.

وَسَاحِرُكُمْ عَنْ أَشْرَاطِهَا: إِذَا فَقَلَ: مَئِي السَّاعَةُ؟ قَالَ مَا الْمَسْؤُلُ عَنْهَا بِأَعْلَمِ مِنِ السَّاعَةِ.....عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ كَانَ اللَّهُيَّ بَارِزًا بِوْمَ الْمَسْأَلَاتِ فَأَنَّهُ جَزِيرَةٌ [4:24] سورة لقمان [ولدت الأمة ربما، إذا تطأول رُغْمَ الْإِبْلِ الْيَهُمْ فِي الْبَيْانِ، فِي حُمْسٍ لَا يَطْلُهُنَّ إِلَّا اللَّهُ ثُمَّ ثَلَاثَ اللَّهِيَّ] [34] سورة لقمان

Abu Hurayra roziyallohu anhordan rivoyat qilinadi.

Tahlil va natijalar. Bir kuni Nabiy sollallohu alayhi vasallam odamlar bilan o'tirgan edilar, huzurlariga Jabroil alayhis salom keldi va "Qiyomat qachon?" dedi. U zot: "Bu haqda so'raluvchi so'rovchidan bilimliroq emas. Senga uning alomatlari haqida xabar beraman. Cho'ri o'z xojasini tug'sa, yo'qsil tuyaboqarlar kimo'zarga bino qursa... U (qiyomat vaqt) Allohdan o'zga hech kim bilmaydigan besh narsa jumlasidadir", dedilar. So'ng Nabiy sollallohu alayhi vasallam "Soat (qiyomat) ilmi yolg'iz Allohning huzuridadir...." [34] Oyatini tilovat qildilar. [1:158]

Izoh: Ushbu hadisi sharifdagi hamda Luqmon surasining 34 oyati dagi سَاعَةً so'zi qiyomat ma'nosida kelganini ko'rishimiz mumkin. مِنْتَاجُ الْمَسْأَلَاتِ jumlesi hadisi sharifda qiyomat vaqt qachon degan ma'noni ifodalab kelgan. Ushbu hadisi sharifda grammatik jihatdan kalimasi سَاعَةً muftadoi muaxxar kesimdan keyin kelgan ega bo'lib raf' holatida kelgan. Luqmon surasining 34 oyati سَاعَةً so'zi esa سَاعَةً (مضاف إلى السَّاعَةِ) (muzofun ilayhi) qaratqichli aniqlovchi bo'lib kelgani uchun jar qaratqich kelishigidagi kelgan.

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ قَالَ: بَيْنَنَا اللَّهِيَّ (ﷺ) فِي مَجْلِسٍ يَحْدُثُ الْقَوْمَ، حَاجَةً أَغْرَى إِيْ قَالَ: مَئِي السَّاعَةُ؟ فَهَذِهِنَّ رَسُولُ اللَّهِ (ﷺ) يُحَدِّثُ، فَقَالَ بَعْضُ الْقَوْمِ: سَمِعْ مَا قَالَ فَإِذَا صَبَغَتِ الْأَمَانَةُ فَانْتَظِرُ السَّاعَةَ، أَيْنَ أَرَاكُ الْمَسْأَلَى عَنِ السَّاعَةِ؟ قَالَ: هَا أَنَا يَا رَسُولُ اللَّهِ، قَالَ: "فَكَاهَهُ مَا قَالَ، وَقَالَ بَعْضُهُمْ: بَلْ لَمْ يَسْمَعْ، حَتَّى إِذَا قَضَى حَدِيثَهُ قَالَ: "إِذَا وَسَدَ الْأَمَانَ إِلَى غَيْرِ أَهْلِهِ فَانْتَظِرُ السَّاعَةَ" قَالَ: كَيْفَ إِصْنَاعُهَا؟ قَالَ: " [4:27]

Abu Hurayra roziyallohu anhordan rivoyat qilinadi.

"Rusululloh sollallohu alayhi vasallam bir majlisda odamlarga hadis aytayotganlarda bir a'robiy kelib: "Soat (qiyomat) qachon?" dedi. Rusululloh sollallohu alayhi vasallam so'zlarida davom etaverdilar. Ba'zi odamlar: "U zot uning gapirganini eshtidilar-u, gapini yoqtirmadilar", deyishdi, ba'zilar esa: "Yo'q, eshitmadilar", deyishdi. U zot so'zlarini tagatgach: "Qiyomat haqida so'rangan – menimcha, shunday dedilar – qani?" dedilar. "Mana men, ey Allohning Rosuli!" dedi. "Qachon omonat zoye qilinsa qiyomatni kutaver!" dedilar. "Uni zoye qilish qanday bo'ladi?" dedi. "Qachon ish o'z ahlidan boshqasiga topshirilsa, qiyomatni kutaver!" dedilar". [1:166]

Izoh: Quyidagi hadisi sharifda biz سَاعَةً so'zini bir hadisi sharifda bir necha marotaba ko'ramiz. مِنْتَاجُ الْمَسْأَلَاتِ jumlasining leksik-semantik holatini ko'rib chiqdig. holatida esa سَاعَةً so'zining turli ma'no va mazmunga ega ekanligini hamda turli grammatik qoidalarga mos holda o'zgarib kelishimi bo'lishimiz esa سَاعَةً idiruvchi vazifasida kelgan. Uchala holatda ham سَاعَةً so'zi leksik jihatdan qiyomat ma'nosida kelgan.

عَنْ غَائِشَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهَا قَالَ: كَانَ رَجُلًا مِنَ الْأَعْرَابِ جَهَادَ، يَأْتُونَ اللَّهِيَّ فَيُسَلِّمُونَهُ: مَئِي السَّاعَةُ؟ فَكَانَ يَتَنَظَّرُ إِلَى أَسْعَفِهِمْ، فَيَقُولُونَ: إِنْ يَعْشَنَ هَذَا لَا يُدْرِكُهُ [4:1324]

Oisha roziyallohu anhordan rivoyat qilinadi.

"Ba'zi a'robiylar qo'rs bo'lardi. Nabiy sollallohu alayhi vasallamning huzuriga kelib, "Qiyomat qachon?" deb so'rashardi. U zot ularning eng kichigiga qarab, "Agar mana bu yashasa, unga qarilik yetmay turib, qiyomatingiz qoim bo'ladi", derdilar". (Roviy) Hishom: "Ya'ni o'limingiz" degan[2].

Izoh: Ma'lumki, har bir kishining o'limi uning "qiyomati"dir. Bu yerda ana shu ma'no nazarda tutilgan.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarni inobatga olgan holda, Imom al – Buxoriy rivoyat qilgan hadislardagi سَاعَةً so'zining turli xil ma'no va mazmunga ega ekanligini hamda turli grammatik qoidalarga mos holda o'zgarib kelishimi bo'lishimiz mumkin. Shu bilan birga, ushbu hadislardagi سَاعَةً so'zi (bir muddat, qiyomat, o'lim) ma'nolarini ifodalagan bo'lsa bugungi kunga kelib esa, سَاعَةً so'zi zamонави arab tilida soatni ya'ni vaqtini ifodalashda ishlatalinadi. Soat سَاعَةً السَّاعَةُ؟ السَّاعَةُ الْأَنَّثَيْنَ وَالثَّلَاثَتِ؟ nechchi? Hozir soat 2:15 deganda سَاعَةً so'zi ishlatalinadi.

Xulosa va takiflar. Xulosa o'rnida aytsak سَاعَةً so'zining (bir muddat, qiyomat, o'lim, soat) kabi bir qancha ma'no xususiyatga ega ekanini ko'rishimiz mumkin. Bunda, arab tilidagi سَاعَةً so'zi o'zbek tili bilan qiyoslaganimizda o'ziga xos bir mazmunga ega bo'lishini, bir tildagi kalima boshqa bir tilga tarjima qilinganda leksik-semantik qiyinchilikka uchrab ijtimoiy leksikaga xos o'zgarishlarga uchrashi mumkin ekan. Bu esa til hodisalariga subyektiv omilning ta'siri kuchining oshib borayotganligini ko'rsatadi. Keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, asarlarda qo'llanilgan arab, o'zbek tillaridagi vaqt ko'rsatkichlarini umumiyligi jihatlarini emas ularning qiyosiy va xususiy jihatdan ham o'rganish tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Har bir omil ilmiy jihatdan mukammal va sinciklab o'rganilsa, boshqa tillardagi tarjimalarga qiyoslanilsa undagi so'zlar alohida olingan terminlar ekanligiga amin bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

- Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Oltin silsila (Sahihul Buxoriy)" 1- juz "Hilol-nashr" nashriyoti, Toshkent, 2013, 670 bet

2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Oltin silsila (Sahihul Buxoriy)" 8- juz "Hilol-nashr" nashriyoti, Toshkent,2013, 687 bet
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Tafsiri hilol" 4- juz "Hilol-nashr" nashriyoti, Toshkent,2013, 638 bet
4. أبو عبد الله محمد بن إسماعيل البخاري" صحيح البخاري" ،دار كتاب العربي، بيروت لبنان، 2016، م، 1728، ص.
5. علي بن أحمد ابن حجر العسقلاني "فتح الباري في شرح صحيح البخاري" مصر 2010
6. Курбонов, Бобур Мовароуннахр ва Хуросон тазкирачилик мактаби шаклланиши // orienss. 2022. №5. url: <https://cyberleninka.ru/article/n/movarounna-r-va-huroson-tazkirachilik-maktabi-shakllanishi>
7. Шавкатжон Аламов (2023). The need for a comparative study of tourist // Международный журнал искусство слова., terms. том 6 № 2 (2023).